

TABU TUSHUNCHASI MOHIYATI VA UNING SHAKLLARI

Shermamatova Zaynab Azimjon qizi
SamDChTI “Ingliz tili leksikologiyasi va
stilistikasi” kafedrası katta o‘qituvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada tabu tushunchasining mazmun-mohiyati, uning shakllari hamda ijtimoiy, psixologik va madaniy funksiyalari tahlil qilinadi. Tabu so‘zlar turli sohalarida diniy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotda uchrab, insonlar o‘rtasidagi muloqot madaniyatini tartibga soluvchi muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Maqolada tabu so‘zlarning senzura, axloq, madaniyat va kommunikativ odob doirasidagi o‘rni, shuningdek, ularning evfemizmlar bilan bog‘liqligi ilmiy jihatdan yoritiladi.

Kalit so‘zlar: tabu, evfemizm, madaniyat, ijtimoiy odob, psixologik himoya, til madaniyati.

Bizga ma‘lumki, til tizimi nafaqat muloqot vositasi, balki jamiyatning axloqiy va madaniy qadriyatlarini ifodalovchi murakkab ijtimoiy hodisadir. Shu jihatdan tabu so‘zlar tildagi eng qadimiy, ammo hanuzgacha faol ishlatiladigan ijtimoiy - lingvistik mexanizmlardan biridir. “Tabu” atamasi dastlab polineziya tillarida “taqiqlangan”, “muqaddas” yoki “hurmatga sazovor” ma‘nolarida qo‘llanilgan bo‘lib, keyinchalik antropologiya, sotsiologiya va lingvistika fanlariga kirib kelgan.

Diniy tushunchalar, muqaddas nomlar yoki axloqiy qadriyatlarga tegishli so‘zlar odatda tabu hisoblanadi. Masalan, ayrim dinlarda Xudo nomini bevosita aytish, ruhlar, jinlar yoki o‘lim bilan bog‘liq so‘zlarni ochiq tilga olish man etilgan. Bu holat so‘z kuchi va uning ilohiy mazmuniga bo‘lgan ishonch bilan bog‘liq bo‘ladi. Jamiyatda esa odob, axloq va estetik me‘yorlarga zid bo‘lgan so‘zlar tabu hisoblanib, ular odatda o‘lim, kasallik, jinsiy hayot yoki jismoniy nuqsonlar bilan bog‘liq mavzularda qo‘llaniladi. Masalan, ingliz tilida “to die” o‘rniga “to pass away”, “to sleep forever” kabi evfemizmlar ishlatiladi; o‘zbek tilida esa “vafot etdi”, “olamdan o‘tdi”, “bizni tark etdi” kabi iboralar mavjud ekanligi kuzatiladi.[3-8]

Bu jarayon tilning ijtimoiy-madaniy xususiyati bilan bir qatorda, inson ruhiyatiga ham ta‘sir ko‘rsatadi. Noqulay mavzularni yumshatish orqali inson o‘zini ruhiy jihatdan himoya qiladi. Shuning uchun psixologlar tabu so‘zlarning inson nutqida “himoya mexanizmi” vazifasini bajarishini ta‘kidlaydilar. Ba‘zan tabu siyosiy yoki diplomatik sabablarga ko‘ra ham yuzaga keladi. Ma‘lum shaxslar, joy nomlari, tashkilotlar yoki voqealarni yashirish maqsadida evfemizmlar ishlatiladi. Masalan, “bir qo‘shni davlat”, “taniqli arbob”, “maxsus topshiriqdagi bo‘linma” kabi iboralar aslida senzura bilan bog‘liq tabu shakllaridan biri hisoblanadi. Bu

holatda tabu axborot xavfsizligini ta'minlash, ijtimoiy barqarorlikni saqlash va diplomatik noziklikni himoya qilish vositasi sifatida xizmat qiladi. [4-106]

Rojdestvenskiy ham ta'kidlaganidek, adabiy nutq doimo uslubiy jihatdan tabaqalasgan bo'ladi, ya'ni unda yuqori va past uslublar o'rtasida ichki farqlanish mavjud. Bu farqlanish, avvalo, kommunikativ vaziyat, suhbatdoshlarning ijtimoiy mavqei va madaniy muhit bilan belgilanadi. Masalan, yosh ayol bilan suhbatlashayotgan madaniyatli erkak tabiiy ravishda qo'pol yoki noo'rin so'zlardan tabu va argo birliklardan tiyiladi, ularning o'rniga adabiy norma va odob me'yorlariga mos evfemizmlarni qo'llaydi.[5-138]

Shuningdek, Rojdestvenskiyning fikricha, evfemizm va argo birliklarining ishlatilishi ko'proq ijtimoiy qatlam va muhit bilan chegaralangan bo'lsa, tabu so'zlar bundan ancha kengroq doirada uchraydi. Ular deyarli barcha ijtimoiy guruhlar nutqida mavjud bo'lib, axloqiy, madaniy va psixologik me'yorlarni saqlashda vosita vazifasini bajaradi.[6-56] Shu ma'noda tabu til tizimining universal hodisasi sifatida ijtimoiy kommunikatsiyada axloqiy me'yorlar va madaniy qadriyatlarning uzviyligini ta'minlaydi.

Shuningdek, tabularning ijtimoiy va psixologik funksiyalari ham mavjud bo'lib, bular quydagilardan iborat:

- ijtimoiy odobni saqlash tabu so'zlar muloqotda qo'pol, haqoratli yoki axloqan nojoiz ifodalardan saqlanishni ta'minlaydi. Bu holat jamiyatda nutq madaniyatining shakllanishiga yordam beradi;

psixologik himoya tabu so'zlar noqulay mavzularni yumshoqroq tarzda ifodalash inson ruhiyatida xavfsizlik hissini paydo qiladi. Shu sababli tabu va evfemizm so'zlar shaxsning ruhiy barqarorligini saqlashda muhim kommunikativ vosita bo'lib xizmat qiladi;

- madaniy va kommunikativ moslashuv jihatdagi tabu so'zlar har bir jamiyatda o'zining madaniy tabu tizimiga ega bo'ladi. Shu sababli tabu birliklarini bilish va ulardan to'g'ri foydalanish madaniyatlararo muloqotda muhim ahamiyat kasb etadi.

- senzura va axborot xavfsizligiga oid tabu so'zlar ba'zan ma'lumotlarni yashirish, ularni yumshatish yoki xavfsiz shaklda ifodalash uchun qo'llanadi. Bu holat tilning strategik va ijtimoiy funksiyalarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Til tizimida tabu va unga ergashuvchi senzura hodisalari tildagi o'zgarishlarning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayon natijasida tilning lug'aviy boyligi yangilanib, yangi, ko'pincha ijodkorlik va o'yinboplik ruhida yaratilgan ifodalar shakllanadi yoki mavjud so'zlar yangi ma'nolar bilan boyiydi. Shu bilan birga, ayrim so'zlar ijtimoiy yoki axloqiy sabablarga ko'ra qo'llanilmay, asta-sekin faol lug'atdan chiqib ketadi. Yangi ifodalar, odatda, ikki yo'l bilan paydo bo'ladi: birinchidan, taqiqlangan so'z shaklining o'zgartirilishi orqali, ikkinchidan esa, najosat, hayz, jinsiy a'zolar, o'lim kabi taqiqlangan mavzular haqidagi inson tasavvuri va qarashlaridan ilhomlanib yaratilgan ko'chma ma'noli iboralar orqali.[2]

Tilshunoslar 1991 yilda G.Allan va K.Burridge,[1] shuningdek 2001 yilda Allan tadqiqotlarida ayrim soʻzlarning shakl va maʼnolari bir necha manbalarga tayanishini taʼkidlashadi. Ularning fikricha, bu manbalar oʻzaro uygʻunlashib, inson ongida maʼlum bir hodisani ifodalash uchun eng mos shaklni topishga xizmat qiladi. Shunday qilib, tabu va senzura jarayonlari til tizimida yangi soʻzlarning qoʻshilishi, eski soʻzlarning yoʻqolishi, tovush oʻzgarishlari hamda maʼno siljishlarini keltirib chiqaradi. Buning natijasida soʻz shakli va maʼnosi oʻrtasidagi ixtiyoriylik tamoyili izdan chiqadi va bu holat tarixiy tilshunoslikning anʼanaviy metodlariga sezilarli taʼsir koʻrsatadi.[2]

Xulosa oʻrnida, tabu til tizimining qadimiy, ammo hozirgacha faol ijtimoiy - madaniy hodisasidir. U inson nutqidagi axloqiy, diniy va psixologik meʼyorlarni tartibga soladi, kommunikativ madaniyatni saqlashga xizmat qiladi. Tabu hodisasi tildagi etik chegaralarni belgilaydi va madaniy tafakkurning ajralmas qismiga aylanadi. Shu bois, tabu va evfemizm muammolarini oʻrganish tilshunoslik, falsafa va sotsiologiyaning kesishgan nuqtasida turgan muhim ilmiy yoʻnalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Allan G., Burridge K. Euphemism and Dysphemism: Language Used as Shield and Weapon. New York: Oxford University Press, 1991.
2. Allan, K., Burridge K. Forbidden Words: Taboo and the Censoring of Language. Cambridge: Cambridge University Press, 2006.
3. Arnold I.V. Stilistika. Sovremennyy angliyskiy yazyk. — Moskva: Flinta, 2012.
4. Reformatskiy A.A. Vvedenie v yazykovedenie. Moskva: Prosveshchenie, 1967.
5. Рождественский Ю.В. *Введение в общую филологию*. М.: Высшая школа, 1979.
6. Рождественский Ю.В. *Теория языка: Введение в современное языкознание*. М.: Академия, 1996.